



NYU YORKLIK IMMIGRANTLAR UCHUN RESURLAR

IMMIGRATSIYA MAQOMINGIZDAN QAT' I-NAZAR, NYU YORK SHAHRI SIZGA YORDAM BERISHGA TAYYOR.



Immigratsiya bo'yicha huquqiy yordam

Immigratsiya bo'yicha bepul va xavfsiz huquqiy yordam uchun dushanbadan jumagacha soat 9 dan 18 gacha **800-354-0365** raqamiga murojaat qiling.



NYC ID kartasi

Barcha 10 yosh va undan yuqori Nyu York rezidentlari uchun IDNYC – bepul munitsipal identifikatsiya kartasiga ariza bering. Onlayn yangilang yoki **311 raqamiga** chaqiruv yoki **nyc.gov/idnyc** veb saytiga kirish orqali uchrashuv belgilang.



Ingliz tili kurslari

Istalgan vaqtda, istalgan joyda **bepul ingliz tili** darslarida qatnashing Ko'proq ma'lumot uchun **wespeaknyc.cityofnewyork.us** manziliga kiring.



Sog'liqni saqlash

NYC Health + Hospitals (H+H) H+H sizga favqulodda yordam, asosiy sog'liqni saqlash xizmatlari, tekshiruvlar, vaksinatsiya va boshqa xizmatlarni taqdim etadi. **O'zingizga yaqin markazga murojaat qilish uchun 1-844-NYC-4NYC (1-844-692-4692) raqamiga qo'ng'iroq qiling.** Tibbiy sug'urta rejalari, shu jumladan, **NYC Care** dasturiga ariza berish uchun **646-NYC-CARE (646-692-2273)** raqamiga murojaat qiling yoki **nyccare.nyc** manziliga kiring.



Ruhiy salomatlik

Ruhiy salomatlik parvarishi va giyohvand moddalar iste'moliga aloqador ma'lumotlar uchun maxfiy yordam va murojaat uchun **888-692-9355** yoki **988 raqamiga qo'ng'iroq qiling, 65173 raqamiga WELL** so'zini SMS qilib yuboring yoki **mentalhealthforall.nyc.gov** manziliga kiring.



Favqulodda holatlar

Favqulodda holatda **911 raqamiga qo'ng'iroq qiling.** Favqulodda holat zudlik bilan politsiya, o't o'chirish xizmati yoki tez-tibbiy yordam talab qilinadigan holat. **Qonunga muvofiq Nyu York shahri politsiya departamenti jinoyat qurbonlari, guvohlar yoki yordam so'ragan boshqa odamlarning immigratsion maqomini so'rashi mumkin emas.**



Davlat ta'limi

4–21 yosh orasidagi barcha Nyu Yorklik bolalar davlat maktabiga borishi mumkin. Ariza berish uchun **schools.nyc.gov/fwc** manziliga kiring yoki **311 raqamiga** murojaat qiling.



Umumiy shahar resurslari va ma'lumotlari

Shahar resurslaridan foydalanishni istaysizmi yoki muammo haqida xabar bermoqchimisiz? **311 raqamiga** murojaat qiling yoki **portal.311.nyc.gov** veb saytiga kiring.



Nyu York shahri immigratsiya masalalari bo'yicha ishonch telefoni

Dushanbadan jumagacha soat 9 dan 17 gacha **212-788-7654** ishonch telefoniga qo'ng'iroq qiling yoki **askmoia@cityhall.nyc.gov** manziliga xabar yuboring.



Mayor's Office of
Immigrant Affairs

Immigratsiya masalalari
bo'yicha mer ofisi

NYU YORKLIK IMMIGRANTLAR UCHUN RESURLAR

IMMIGRATSIYA MAQOMINGIZDAN QAT' I-NAZAR, SIZNING O'Z HUQUQLARINGIZ BOR.

Immigratsiya bo'yicha firibgarlikning oldini olish

Immigratsiya bo'yicha huquqiy maslahat uchun faqat litsenziyalı advokat yoki akkreditatsiyadan o'tgan vakilga murojaat qiling. nyc.gov/immigrants manzilida akkreditatsiyadan o'tgan va taniqli ta'minotchilar ro'yxatini topishingiz mumkin.

Immigratsiya nazorati bo'yicha huquqlar

Nyu York shahri immigratsiya nazoratini yuritmaydi. Agar sizga federal immigratsiya nazorati murojaat qilsa, siz o'z huquqlaringizga egasiz. nyc.gov/knowyourrights manziliga kiring yoki **800-354-0365** raqamidagi immigratsiya huquqiy bepul ishonch telefoniga qo'ng'iroq qiling.

Ishchilarning huquqlari

Siz kasallik varaqasi bo'yicha to'lov, minimal ish haqi, ortiqcha ishlagani uchun ish haqi va Nyu York shahri qonuniga muvofiq boshqa huquqlarga egasiz. Resurslar uchun nyc.gov/workers manziliga kiring yoki **212-436-0381** raqamiga murojaat qiling.

Kamsitish haqida xabar berish

Nyu York shahri inson huquqlari qonuniga asosan tajovuz va kamsitish noqonuniy hisoblanadi. Kamsitish bilan bog'liq noxush hodisa haqida xabar berish uchun **212-416-0197** raqamiga murojaat qiling.

Oiladagi zo'ravonlikka qarshi himoya

Sizga nisbatan qonunbuzarlik holati mavjud bo'lsa, Nyu York shahri sizga yordam beradi. nyc.gov/nychope manziliga kiring yoki **800-621-HOPE** raqamidagi Nyu York shahri oiladagi zo'ravonlik bo'yicha ishonch telefoniga qo'ng'iroq qiling.

Ijarachining huquqlari

Ko'chish yoki ijaraga beruvchiga aloqador masalalar bo'yicha yordam kerakmi? nyc.gov/tenantprotection manziliga kiring yoki **311** raqamiga qo'ng'iroq qiling va bepul huquqiy yordam uchun "tenant helpline" (ijarachi uchun yordam markazi) jumlasini ayting.

Boshpana huquqi

Agar boshpanangiz bo'lmasa, boshpana so'rash huquqiga egasiz. Belgilangan Uysizlar uchun xizmatlar departamenti (Department of Homeless Services, DHS) qabul qilish markaziga borib, boshpana xizmatlaridan foydalaning. **311** raqamidan ko'proq ma'lumot oling.

Iste'molchilarni himoya qilish

Biznes bilan muammolaringiz bormi? Iste'molchi sifatida sizning huquqlaringiz bor. nyc.gov/consumers manzili orqali shikoyat qiling yoki **311** raqamiga murojaat qiling.